



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi*  
\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_ - 20\_\_ - o'quv yiliga 7 - sinflar uchun*  
*adabiyot fanidan IV chorak*

***DARS***  
***ISHLANMALARI***

20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 7-sinf adabiyot IV chorak  
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
<b>IV chorak</b>				
1.	O‘lmas Umarbekov: «Qiyomat qarz» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
2.	O‘lmas Umarbekov: «Qiyomat qarz» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
3.	O‘lmas Umarbekov: «Qiyomat qarz» hikoyasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
4.	O‘lmas Umarbekov: «Qiyomat qarz» hikoyasi: Loyiha taqdimoti	1		
5.	Qamchibek Kenja: «Baliq ovi» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
6.	Qamchibek Kenja: «Baliq ovi» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
7.	<b>BSB-4. Asar tahlili (50 ball)</b>	1		
8.	Saida Zunnunova: «Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh», Iqbol Mirzo: «Daraxtlar». Tahlil va solishtirish	1		
9.	Saida Zunnunova va Iqbol Mirzo lirikasini solishtirish	1		
10.	Anton Chexov: «Xameleon» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
11.	Anton Chexov: «Xameleon» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
12.	Anton Chexov: «Xameleon» hikoyasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
13.	Anton Chexov: “Xameleon” hikoyasi: Satira va yumor. Detal	1		
14.	Fanlararo aloqa: Adabiyot va tasviriy san’at	1		
15.	<b>CHSB-4 (40 ball)</b>	1		
16.	Takrorlash. Ta’til topshirig‘i	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: O‘lmas Umarbekov: «Qiyomat qarz» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash.**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy asarlarni tushunish, orasta kiyinish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

aniq reja tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, chizmalarni o‘qiy olish.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqti</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Yozuvchi, kinossenariynavis, tarjimon, davlat arbobi O‘lmas Umarbekov (1934–1994) Toshkentda tug‘ilgan. Dastlab o‘rta maktabda, so‘ng Toshkent davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) tahsil olgan. Yozuvchi bolalik orzulari haqida shunday degan edi: “Men ham yoshligimda ko‘p narsalarga qiziqqanman. Keyinchalik

uchuvchilikni orzu qilgan edim, bog‘bon ham bo‘lmoqchi bo‘lganman. Ammo adabiyot hamma orzularimdan kuchlilik qildi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘rta maktabni tugatganimda, hech ikkilanmasdan, Toshkent dorilfununining fi lologiya fakultetiga kirdim. Endi bo‘lsa, adabiyotsiz, badiiy ijodsiz hayotimni tasavvur qilolmayman”. O‘lmas Umarbekovning qator asarlari boshqa tillarga tarjima qilingan, o‘zi ham jahon yozuvchilari asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan. Yozuvchining ssenariylari asosida badiiy fi lmlar suratga olingan. Adib xizmatlari hukumat tomonidan e’tirof etilib, faxriy unvonlar bilan taqdirlangan.

Biz o‘qiydigan “Qiyomat qarz” hikoyasida e’tiqod, diyonat, va’daga afo kabi masalalar Sarsonboy ota obrazi orqali ochib beriladi.

Siz “qarz” so‘zini qanday tushunasiz? Nega “qarz” va “qiyomat” so‘zlari birga qo‘llanyapti? Bu so‘zlar orasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?

Tasavvur qiling, do‘stingiz siz bergan omonatga xiyonat qildi. Bu holatda siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?



#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

Bu mavzuda biz:

- hikoyadagi milliy xarakterning badiiy talqinini muhokama qilamiz;
- badiiy tasvir vositalariga oid bilimlarimizni mustahkamlaymiz;
- asar syujetini tahlil qilamiz.

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: O‘lmas Umarbekov: «Qiyomat qarz» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash.**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

oila, maktab, mahallada bo‘layotgan jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish.

aniq reja tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, chizmalarni o‘qiy olish.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

### **QIYOMAT QARZ**

Sarsonboy ota rayon markaziga kelganda quyosh yerdan endigina cho‘giri tilimidek ko‘tarilgan edi. Kim biladi, hali erta bo‘lgani uchunmi yo sovuq tushib, bozor-o‘char qiladiganlar kamayib qolganidanmi –odam siyrak, bozor kunlari bo‘ladigan g‘ala-g‘ovur, to‘polon yo‘q. Chol ichida xursand bo‘lib qo‘ydi: “Ha, tuzuk, bu gal kechikmadim. Avji bozor”. U shunday deb otning jilovini tortdi. Quloqlarini osiltirib tin olayotgan to‘riq xuddi shuni kutib turgandek pastga, daryo tomonga yo‘rg‘aladi. Bu joylarni u egasi kabi yaxshi

biladi. Ulgʻayib, ustiga egar urilibdiki, har yakshanba kuni butun Hisorni oshib, shu yerga keladi. Tor taxta koʻprikning yoniga omonatgina qurilgan choyxona etagida toʻxtaydi. Daryoning sel yuvib, besoʻnaqay kengaygan shu yeri urush yillaridan beri – kech kuzdan erta bahorgacha – bozor. Chor atrofdan yigʻilgan yigitlar frontga shu yerdan joʻnashgan. Ustunlari chirigan choyxona ham oʻsha sertashvish yillardan nishona...

Sarsonboy ota otini ilgarilari shu ustunlardan biriga bogʻlab qoʻyardi. Oʻzi esa yo bozor aylanardi, yo peshingacha choyxonada oʻtirardi. Bozor tugagach, peshin namozini oʻqib, iziga qaytardi. Toʻriq uzoq vaqtgacha bunga koʻnikolmadi, bir-ikki marta hatto tizginni uzib qochdi, butun bozor ahlini sarson qildi. Bir-ikki marta esa yarim yoʻlda tixirlik qilib, oyogʻini tirab turib oldi, boʻlmadi. Qamchi yedi. Endi koʻnikib qoldi. Sarsonboy ota endi uni bogʻlamaydi ham. Otning oʻzi shunday ustun tagiga kelib, uning tushishini kutadi-da, koʻzlarini yumib, keyingi bir oyogʻiga dam berganicha, joyidan qimirlamay turaveradi...

Bu gal ham shunday boʻldi. Sarsonboy ota ustun tagida otdan tushib, choyxonaga kirib ketdi. Toʻriq ogʻir xoʻrsinib, atrofiga qaradi. Koʻprik tagida bir targʻil sigir sovuqdan tuklari hurpaygan buzogʻini erinchoqlik bilan yalardi. Toʻriq unga qarab turib, zerikdi. Esnadi-da, koʻzlarini yumdi.

Sarsonboy ota katta koʻzi singan deraza yoniga choʻkkaladi. Choyxona qurilibdiki, shu joy uniki. Birov oʻtirgan boʻlsa ham, u kelganda boʻshatib beradi. Shu yerdan bozor maydoni yaxshi koʻrinadi, koʻprikdan oʻtayotgan biror odam ham xato ketmaydi, hammasi koʻzdan oʻtadi.

– Ha, Sarsonboy, omonmisan? – dedi choyxonachi choy keltirib qoʻyar ekan. – Yana kelibsana-da?

– Nima, senga ogʻirligim tushdimi? – toʻngʻilladi Sarsonboy ota oftob sargʻaytirgan siyrak qoshlarini chimirib.

– Jazillama. Azbaroyi achinganimdan gapiraman. Kutgandan yomon narsa yoʻq.

Sarsonboy ota javob bermadi. Uning bugun goʻyo niyatiga yetadigandek kayfichogʻ edi, lekin oʻrtogʻining gapi bilan koʻngli buzildi.

Bir: “Sening nima ishing bor? Choyingni sotsang-chi!” – demoqchi ham boʻldi, tili bormadi. Madumar akaning gapida jon bor edi. Oʻgʻlidan qoraxat kelganidan keyin bechora oʻn yil kutdi. Xatsiz, xabarsiz xotini farzand dogʻida ado boʻlay dedi. Oʻzi esa, choʻp boʻlib qoldi. Oxiri chidolmay aza ochdi. Ermagi –choyxona. Madumar akaning bugungi gapida chindan ham jon bor edi.

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash


1.Sarsonboy ota nima uchun: “Ha, tuzuk, bu gal kechikmadim. Avji bozor”, – dedi? U bozorga nima maqsadda keldi deb oʻylaysiz? Nima uchun otaning hikoyadagi ilk nutqi mana shu jumla bilan boshlandi?

2.Sarsonboy ota nima uchun doim singan deraza yoniga oʻtiradi?

Uning bozorga kelishdan maqsadi oydinlashdimi?

**V. Darsni yakunlash:** oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

**VI. Uyga vazifani eʻlon qilish:** yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



OʻIBDOʻ:

(imzo)

(sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**34 listdan iborat adabiyot fanidan 7-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**